

# TA'LIM JARAYONIDA ICHKI MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Xamraliyeva Odinaxon Moxirdjon qizi**

Ilmiy darajasi: Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi magistranti

E-mail: [Odinagaparova@gmail.com](mailto:Odinagaparova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22843602>

Received: 13 September 2026 • Accepted: 18 September 2026 • Published: 19 September 2026

## Annotatsiya.

Mazkur tezisda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirish masalalari, uning ta'lim samaradorligi va shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyati yoritilgan. Ichki motivatsiyaning mohiyati, uning o'quv faoliyatiga ta'siri hamda ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, bilishga qiziqish va o'z ustida ishlash istagini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi pedagogik shart-sharoitlar va samarali metodlar haqida fikrlar bayon etilgan.

## Kalit so'zlar:

ichki motivatsiya, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati, ta'lim samaradorligi, mustaqil ta'lim, qiziqish, pedagogik yondashuv, shaxsiy rivojlanish.

## Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida ta'lim oluvchining faqatgina bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki mustaqil fikrlashi, o'z faoliyatini boshqara olishi, yangilikka intilishi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday sifatlarni shakllantirishda motivatsiya muhim psixologik-pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim jarayonida motivatsiya ichki va tashqi omillarga asoslanishi mumkin. Tashqi motivatsiyada ta'lim oluvchi baho, mukofot, rag'bat yoki jazodan qochish kabi omillar ta'sirida faoliyat yuritisa, ichki motivatsiyada bilim olishning o'zi, yangi narsalarni bilishga qiziqish, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish va shaxsiy rivojlanishga intilish asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'ladi.

### Asosiy qism

Ichki motivatsiya shaxsning muayyan faoliyatni tashqi majburlov yoki mukofot uchun emas, balki ushbu faoliyatning o'zi qiziqarli va mazmunli bo'lgani uchun amalga oshirishga bo'lgan intilishidir. Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyaning mavjudligi talabaning yoki o'quvchining bilim olishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan ta'lim oluvchi topshiriqlarni faqat baho olish uchun emas, balki mavzuni chuqurroq tushunish va o'z bilimlarini rivojlantirish maqsadida bajarishga intiladi. Natijada uning mustaqil ta'lim olish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, savollar berish va yangi bilimlarni izlab topish faolligi ortadi.

Ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani shakllantirish uchun, avvalo, ta'lim oluvchining qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Bir xil topshiriq va metodlardan doimiy foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishini pasaytirishi mumkin. Shu sababli pedagog ta'lim jarayonini xilma-xil metodlar asosida tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Xususan, muammoli ta'lim, loyiha metodi, interfaol metodlar, munozara, guruhli ishlar, amaliy topshiriqlar va tadqiqotga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanish ta'lim oluvchilarning darsdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday metodlar ta'lim oluvchiga tayyor ma'lumotni qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Ichki motivatsiyani rivojlantirishda ta'lim muhitining ham ahamiyati katta. Pedagog tomonidan ta'lim oluvchining fikrini hurmat qilish, uning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, xatolarini rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish va muvaffaqiyatlarini e'tirof etish ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim oluvchiga ma'lum darajada tanlov imkoniyatini berish ham ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Masalan, topshiriqni bajarish usulini, mavzuni yoki loyiha yo'nalishini tanlash imkoniyati ta'lim oluvchida mas'uliyat va mustaqillik hissinini rivojlantiradi.

Ichki motivatsiyaning shakllanishida maqsadni to'g'ri belgilash ham muhimdir. Ta'lim oluvchi o'z oldiga aniq, erishish mumkin bo'lgan va mazmunli maqsadlarni qo'ya olsa, uning ta'lim faoliyatidagi ishtiroki yanada faol tus oladi. Shu nuqtayi nazardan, pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim oluvchining individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Ichki motivatsiya va ijtimoiy-intellektual faollik ham o'zaro bog'liq jarayonlardir. Ta'lim oluvchining yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ichki ehtiyoji uning fikrlash, muloqot qilish, muammolarni hal etish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish faolligini oshiradi. Shu sababli ichki motivatsiyani rivojlantirish nafaqat akademik natijalarga, balki shaxsning ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida ichki motivatsiyani shakllantirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Ichki motivatsiya ta'lim oluvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, mustaqil fikrlash, izlanish, ijodkorlik va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.

Ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish, ta'lim oluvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, interfaol va muammoli metodlardan foydalanish, mustaqil tanlov imkoniyatlarini yaratish hamda ijobiy psixologik muhitni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvlar ta'lim oluvchining nafaqat o'quv faoliyatidagi natijalarini, balki uning ijtimoiy-intellektual faolliги va shaxsiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Абрамова Г. С. Возрастная психология: учебник для студентов вузов. – М.: Академический проект, 2001. – 704 с.
2. Abdullaeva G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018. – 256 b.
3. Baxtiyrov R. M. Talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik talablari. // Inter Education & Global Study. – 2024. – № 3(2). – B. 133–141.
4. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum, 1985.
5. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург: Питер, 2000.
6. Qodirov K. B. Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlar va kasbiy tashxis. – Toshkent, 2001. – 62 b.
7. Qodirov R. Shaxsning motivatsion tizimi va uni rivojlantirish muammolari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 188 b.
8. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970.
9. Matkarimov J. Sh., Sharofaddinov Sh. A. Ta'lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar. – Manbaaga murojaat sanasi: 13.06.2019.
10. Maxmudova D. Y. Maxsus ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga malakali psixologik xizmat ko'rsatishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2007. – 147 b.
11. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent, 2013.
12. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. // American Psychologist. – 2000.
13. Sog'inov N. A., Qodirov U. D. Sog'lom bola shakllanishining ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlar: uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2014. – 56 b.
14. Usmanova E. Z. O'quvchilarning mustaqil tafakkurini qanday shakllantirish mumkin? // Pedagogika va yosh psixologiya: ilmiy-ommabop seriya. – 2000. – № 1. – B. 27–32.

15. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991.
16. Xaydarov F. I., Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009.
17. Yuldashev E. S. O'quvchilarning o'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyasini shakllantirish. // KSPI Conference. – 2023. – Volume 4.